

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti rektori
Sh.S.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**10.00.10 – “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantruraga kirish**

D A S T U R I

TOSHKENT-2025

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar: f.f.d., prof. N.Jabborov, f.f.d., prof., v.b. R.Zoxidov, f.f.d.,
prof., v.b. Q.Pardayev**

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi Nizom"i oliy ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini jahon standartlari darajasiga ko'tarish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. 2016-yil 13-maydagi PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarning xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi.

Bugungi kunda Respublikamiz fondlarida mavjud qo'lyozma va toshbosma matnlarni o'qish va tadqiq; etish malakasini egallash bo'lajak fan doktorlari uchun muhim va dolzarb vazifadir. Qolaversa, ko'p yillik adabiy tariximiz haqida to'g'ri va sog'lom tasavvurda bo'lishlari uchun nafaqat manbashunos va matnshunoslar, balki bo'lajak adabiyotshunos va tilshunoslarimiz ham mumtoz adabiyot namunalari bilan birlamchi manbalar orqali tanishish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Mumtoz adabiyotimiz tarixini asliyatga tayanib ilmiy tadqiq etish o'zbek filologiyasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning fundamental vazifasidir. Shu mas'uliyatni chuqur his qilgan holda aytish mumkinki, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi buyicha doktorlik imtihonining ushbu dasturi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tuzildi va taqdim qilingan mavzular, nazorat savollari tadqiqotchilar bilim saviyasini aniqlashga yetarli kafolatdir.

Dastur talabgorning yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun zarur bo'lgan muhim manbalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism

Qo'lyozma matnni o'rganishning nazariy asoslari

Matnshunoslik fanining maqsadi, predmeti va vazifalari. Adabiy manbashunoslik va uning asoslari. Mazkur fanning ilmiy muammolari. Milliy matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning namoyandalari. Ilmiy va adabiy manbashunoslikning D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy, P.Shamsiev, H.Sulaymon kabi yetuk mutaxassislari tadqiqotlaridamatnshunoslik nazariyasi masalalarining yoritilishi.

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning fanlar tizimidagi o'rni

Manbashunoslik va uning mazmuni. Filologik fanlar kontekstida matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka munosabat. Manbashunoslik,

matnshunoslik, adabiyotshunoslik va tilshunoslikning o‘zaro mutanosibligi, ularning farqli va spesifik jihatlari.

Ilmiy-tanqidiy matn tushunchasi

Ilmiy-tanqidiy matn tushunchasi, maqsadi va uning tarkibiy tuzilishi. Matnshunoslikda “ilmiy apparat” tushunchasi va kategoriyalari. Ilmiy tanqidiy matnni tuzish prinsiplari. Matn asliyat va ilmiy tanqidiy matn munosabati.

Tafsir ilmi va hermenevtika

Matn sharhi turlari. Sharq adabiy merosida tafsir ilmi uning xususiyalari. G‘arb adabiy ta’limotidai hermenevtik talqin tushunchasi va ilmiy qarashlar. Hoshiya, glossariy, interpretatsiya va ularniig matn mukammalligini ta’minlashdagi o‘rni. Tafsir va hermenevtik talqinning uyg‘unligi.

Ko‘p nusxali qo‘lyozma ustida ishlash

Bir necha nusxali qo‘lyozmalarni qiyoslash metodlari. Tayanch nusxani aniqlash. Matnni muqoyasa etishning ilmiy usullari. Ko‘p nusxali qo‘lyozma asarlarning tiklanishi va uning prinsiplari.

Yagona nusxadagi matn tarixini o‘rganish

Matn tarixi mazmuni. Bir nusxali qo‘lyozmalarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish tajribalari. Individual va umumiy yondashuv uslubi. Yagona nusxali qo‘lyozmalarning ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorlash prinsiplari.

Matnshunoslikda “ilmiy tavsif” tushunchasi

Ilmiy tafsif tuzilishi va tarkibi. Ilmiy tafsif turlari. Qadimiy manbalar uchun tuzilgan kataloglarning ahamiyati. Ilmiy tafsifning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik rivojidagi o‘rni. Ilmiy tafsif prinsiplari.

Tabdil muammolari

Tabdil va uning mazmuni. Tabdilda aslyat yozuvi va matnning ahamiyati. Tabdilda shartlilik prinsipi. Matnni bir yozuvdan boshqasiga o‘girishda malaka va mahorat masalasi. Mustaqillik davrida adabiy asarlarning tabdil qilinishi xususiyatlari.

Tarjima asarlar matnini o'rganish

Tarjima asarlarning o'ziga xos xususiyatlari. Tarjima va asliyatni qiyoslash usullari. Tarjima matnini o'rganishda zamon va makon kategoriyasi. Tarjima asarlarda glossariy va interpretatsiya. Asliyat va tarjima nusxalaridan tarjima qilish xususiyatlari.

Matniy tafovutlarni o'rganishning nazariy asoslari

Matnda muallif tahriri (Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat merosimisolidi). Bir asarning turlicha variantlari. Kotiblar bilan bog'liq tahrir. Uslub bilan bog'liq tahrir. G'oyaviy tahrir. (Furqat, Zavqiy, Hamza she'riyati misolidi). Nazariy xulosalar.

Arab va eski o'zbek yozuvi

Manbashunoslik va matnshunoslik ilmida yozuv malakasining ahamiyati. Arab yozuvi tarixi. Eski o'zbek yozuvining farqli jihatlari. Eski o'zbek yozuvidagi manbalar. Arab va eski o'zbek yozuvidagi adabiy asarlar matnini tabdil qilish xususiyatlari.

Qadimgi turkiy adabiy manbalar

Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy kabilarning asarlari adabiy manba sifatida. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"i. "Turkiy tafsir" va uning adabiy manbashunoslikdagi ahamiyati. Qul Alining "Yusuf va Zulayho" dostoni matni qadimgi turkiy adabiy manba sifatida.

Navoiy adabiy merosining matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi

Navoiy asarlari matni va adabiy manbashunoslik masalasi. Navoiy adabiy merosining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzishdagi prinsiplar. Porso Shamsiev va Izzat Sultonning Navoiy asarlari matnini o'rganish yo'lidagi ilmiy izlanishlari. Mustaqillik davri navoiyshunosligida matnshunoslik masalalari.

Qo'lyozma asarlarning tuzilishi

Qo'lyozma asarining tuzilish xususiyatlari. Basmala, hamd, na't va xulosa. Nasriy va nazmiy matnlarning qo'lyozmadagi o'ziga xos xususiyatlari. Poygir va kolofon. Qadimgi qo'lyozmalarda bezak va tuzilishning o'zgaruvchanligi. Hoshiya va uning mazmuni.

XX asr o'zbek matnshunosligi

XX asr o'zbek matnshunosligining o'ziga xos xususiyatlari, namoyandalari,

tadqiqot usullari. O‘zbek va rus matnshunosligi hamkorligi. Alisher Navoiy asarlarining matniy tadqiqi. O‘zbek mumtoz adabiyotlari matnshunosligining taraqqiyoti. XX asr o‘zbek matnshunosligining ilmiy tajribalari va hozirgi zamon.

Tazkiranavislik tarixi

Tazkiraning adabiyotshunoslikdagi o‘rni. Tazkiraning tuzilishi va xususiyatlari. XIX asr tazkiralari. Xorazmiyning “Tazkirat ul-avliyo” asari Fazliy va uning “Majmuai shoiron” tazkisasi. Komil Xorzamiyning tazkiranavislikdagi o‘rni.

Bayozlar adabiy manba sifatida

O‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligida bayozning o‘ziga xos xususiyatlari. Bayozda mualliflar tasnifi. Bayoz tartib berish an‘anasining zamonaviy ko‘rinishi. Bayozlarning keyingi asrlarda tazkiralarning o‘rnida tashkil etilganligi va ularning Qo‘qon, Buxoro va Xorazm adabiy muhitlari rivojidagi o‘rni.

Devon – adabiy manba

O‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligida devon va uning tuzilishi tamoyillari. Devon sohibi bo‘lgan shoirlar. Debocha va uning shoir biografiyasini o‘rganishdagi o‘rni. Devonlarning arab alifbosi tarkibida tuzilish xususiyatlari. Devonlarda kiritilgan she‘rlarning janr xususiyatlari.

Milliy uyg‘onish davri manbashunosligi

O‘zbek adabiy manbashunosligi taraqqiyot bosqichlari. Milliy uyg‘onish davri manbashunosligi va uning o‘zbiga xos xususiyatlari. Fitratning manbashunoslik faoliyati. Eski o‘zbek yozuvining isloh qilinishi jarayoni. Jadid milliy matbuoti - adabiy manba sifatida. XX asrda arxivshunoslikning tarkib topishi va adabiy merosni o‘rganishda arxiv materiallarining o‘rni.

Nashr turlari

Adabiy asarlarning nashr turlari. Qo‘lyozma. Toshbosma. Faksimile. Bosma nashr. Ilmiy va ommabop nashrlarning xos xususiyatlari. Ilmiy-tanqidiy matn nashri. Ommabop va bayon qilingan nashr turlari. O‘zbek mumtoz manbalarini nashr etish xususiyatlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shamsiev P. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. -T.: Fan, 1986.-164 b.
2. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. - T.: DavrgressNMU, 2013.-496 b.

3. Habibullaev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. - T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituta, 2000. - 1726.
4. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi kirralari" T.: Akademnashr, 2015.
5. Zufarov T. Xat ta'limi. -T.: Meriyus, 2010. -275 b.
6. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. - T.: Fan, 2007. -295 b.
7. Erkinov. A.Matnshunoslikka kirish. -T.: Nashriyotsiz, 1997. - 506.
8. Zohidov R. "Sabotul-ojizin" asari manbalari, sharhlari va ilmiy tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari -T.:Muharrir, 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. -T.: Ma'naviyat, 2003. -1106.
2. Rustamiy A. Hazrat-i Navoiyning "mast-i alast"i. -T.: Yextremumpress, 2012. - 46 b.
3. Rustamiy A. Hazrat-i Navoiyning e'tikodi. -T.: Yextremumpress, 2010.-79 b.
4. Rustamov A. So'z xususida so'z. -T.: Yosh gvardiya, 1987. -156 b.
5. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T.: Akademnashr, 2011.
6. Gadoyi devonining lug'ati va matni (nashrga tayyorlovchi: M.Rustamov). -T.: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi,2007.-203b.
7. Jabborov Sh. Germenevtika - tushuntirish ilmi. -T.: Akademiya, 2010,-154 b.
8. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. -T.:Fan, 2004. -212 b.
9. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. - T.: Fan, 1971.- 198 b.
10. Navoiy dastxati. (Navodir un-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi muallifi S. G'anieva. - T.: Fan, 1991. - 300 6.
11. Pravila podgotovki k izdaniyu pamyatnikov literatury Vostoka, M.: Vostochnoy literatury, 1959. - 30 s.
12. Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. -Toshkent: O'zbekiston, 2015, - 440 b.
13. Raxmonkulova M. O'zMU kutubxonasidagi Sharqqo'lyozmalari katalogi. - T.: IRTD O'zbekiston, - 2007. 96 b.
14. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar. - T.: Fan, 1991.-52 6.
15. Hakimov M. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. - T.: Fan, 1983.- 199 b.

Internet saytlar:

1. www.literature.uz
2. www.ziyo-net.uz
3. www.kutubxona.uz

Baholash mezonlari

Kirish sinovi ogʻzaki ravishda oʻtkazilishi belgilangan boʻlib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qoʻyiladigan talablar
86-100	Qoʻyilgan savolga toʻliq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yoʻl qoʻyilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani toʻgʻri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol boʻyicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Ilmiy-tanqidiy matn tushunchasi, maqsadi va uning tarkibiy tuzilishi.
2. Navoiy asarlari manbalarini oʻrganish muammolari.
3. Hoshiya, glossariy, interpretatsiya va ularniig matn mukammalligini taʼminlashdagi oʻrni.
4. Matnshunoslikda “ilmiy apparat” tushunchasi va kategoriyalari.
5. Matn asliyat va ilmiy tanqidiy matn munosabati.
6. Bir necha nusxali qoʻlyozmalarni qiyoslash metodlari.
7. Koʻp nusxali qoʻlyozma asarlarni nashr qilish mummulari.
8. D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy, P.Shamsiev, H.Sulaymon tadqiqotlarida matnshunoslik nazariyasi masalalarining yoritilishi.
9. Tayanch nusxani aniqlash tamoyillari.

10. Matnshunoslikda “Matn tarixi” masalasi.
11. Bir nusxali qo‘lyozmalarni tadqiq etish muammosi.
12. Ilmiy tafsifning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik rivojidadagi o‘rni.
13. Tabdilda asliyat yozuvning ahamiyati.
14. Mustaqillik davrida adabiy asarlarni tabdil qilish xususiyatlari.
15. Tarjima matnini o‘rganishda zamon va makon kategoriyasi.
16. Yagona nusxali qo‘lyozmalarning ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorlash prinsiplari.
17. Matnda muallif tahriri (Navoiy, Furqat, Muqimiy merosi misolida).
18. Manbashunoslik va matnshunoslik ilmida yozuv malakasining ahamiyati.
19. Uslub bilan bog‘liq tahrir.
20. Eski o‘zbek yozuvidagi manbalar tahlili.
21. Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy sigari ijodkorlar asarlari manbasi tahlili.
22. Muallif va kotiblar bilan bog‘liq tahrirlar xususiyati.
23. Bir asarning turlicha variantlari masalasi.
24. Navoiy asarlari manbalarini o‘rganish muammolari.
25. Navoiy adabiy merosining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzishdagi prinsiplar.
26. Qo‘lyozmalarda basmala, hamd, na‘t va xulosa.
27. Nasriy va nazmiy matnlarning qo‘lyozmadagi o‘ziga xos xususiyatlari.
28. Qo‘lyozmalarda poygir va kolofon masalasi.
29. XX asr o‘zbek matnshunosligining ilmiy tajribalari va hozirgi zamon.
30. Tazkiraning adabiyotshunoslikdagi o‘rni.
31. O‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligida “Bayoz” va “Devon”ning o‘ziga xos xususiyatlari.
32. Debocha va uning shoir biografiyasini o‘rganishdagi o‘rni.
33. Jadid milliy matbuoti - adabiy manba sifatida.
34. O‘zbek adabiy manbashunosligining taraqqiyot bosqichlari.
35. Fitratning manbashunoslik faoliyati.
36. Adabiy asarlarning nashr turlari.
37. Adabiy asarlarda tahrir masalasi.
38. O‘zbek mumtoz manbalarini nashr etish muammolari.
39. Qo‘lyozma. Toshbosma. Faksimile manbalarining xos xususiyatlari.
40. Qo‘qon, Buxoro va Xorazm adabiy muhitlarida bayozchilik masalasi.
41. Alisher Navoiy asarlari manbasi tahlili.
42. Adabiy asarlarning nashr turlari.
43. Adabiy asarlarda “G‘oyaviy tahrir”. (Furqat, Zavqiy, Muqimiy, Hamza she‘riyati misolida).
44. Debocha va uning shoir biografiyasini o‘rganishdagi o‘rni.
45. Matnshunoslikda “Matn tarixi” masalasi.
46. Tarjima asarlarda glossariy va interpretatsiya masalasi.

47. Mustaqillik davrida adabiy asarlarning tabdil qilinishi xususiyatlari.
48. Matnshunoslikda “G‘oyaviy tahrir” masalasi.
49. Matn asliyati va ilmiy tanqidiy matn munosabati.
50. Ko‘p nusxali qo‘lyozma asarlarni o‘rganish tamoyillari.
51. Matnshunoslik fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.
52. Ogahiy asarlari manbalarini o‘rganish muammolari.
53. Matnshunoslikda “ilmiy apparat” tushunchasi va kategoriyalari.
54. Adabiy asarlarning nashr turlari.
55. XX asr o‘zbek matnshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari.
56. Tazkiraning tuzilishi va xususiyatlari.
57. Matnshunoslik fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.
58. Bayozlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
59. Toshbosma. Faksimile. Bosma nashr.
60. Adabiy merosni o‘rganishda arxiv materiallarining o‘rni.
61. Matnni joriy imloga tabdil qiling (imtihon kuni matn beriladi).